		Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi. Har ikki (asp-rantura, doktorantura) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.	ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosliklar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta`lim shakli. **Mustaqil izlanuvchalik** - ishlab chiqa-rishdan bo'shamagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo'yicha fan doktori ilmiy darajasi izlanuvchilari uchun oliy ta`lim muassasalari va ilmiy tadqiqot muassasalarida tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta`lim shakli.
4.	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.	**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan na'munadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2012 yil 28 maydagi** "Malakali pedagog kadrlartayyorlash hamda o'rta maxsus,kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" gi **PQ-1761 sonli** qarori asosida: O'rtamaxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda malakasini oshirishga ixtisoslashga noliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2017 yil 26-sentyabrdagi** «Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi **PQ-3290-sonli** qaroriga asosan: Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazlarida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018 yil 3 fevraldagi** "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirli-gining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi **PQ-3504- sonli qaroriga** asosan: Kasb-hunar ta'limi tizimning pedagog kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning yangi shakllari va usullarini joriy etish, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini boshqarishning yangi vertikalini tashkil etish. Kasb-hunar ta'limi tizimini innovatsion rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash instituti tomonidan amalga oshiriladi.

2.Uzluksiz ta`limi tizimida o'rta maxsus ta`limining o'rni va ahamiyati

Uzluksiz ta`lim kadrlar tayyorlash tizimining asosisifatidaijodkor, ijtimoiy faol, ma`naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Bu vazifalarni bajarishda uzluksiz ta`limi tizimida o'rta maxsus ta`limining o'rni va ahamiyati katta. O'rta maxsus, kasb-hunar ta`limi